

Bayramingiz muborak, ustozlar!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



TONG YULDUZI

2009-yil
28-sentabr
N:39
(66736)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni!



SIZ SHARAFGA LOYIQSIZ!

Har yili «O'qituvchi va murabbiylar kuni»ni keng tantana qilib, ustoz-murabbiylarimizni kasb bayramlari bilan tabriklaymiz. Bu kun siz ham ertalab maktabingiz quchog'iga kelgan zahotingiz eng shirin so'zlar bilan ularning ko'nglini chog' etasiz. Albatta, dunyoda eng ulug' kasb egalari bo'lmish ustozlaringizning og'ir va mashaqqatli mehnatini har qancha ulug'lasak oz.

Ustozi

Bir og'iz so'z. Ammo uning zamirida ulkan tog'larning zalvori, keng dalalarning betimsol go'zalligi, quyoshning tafti-yu onalarning beqiyos mehr-muhabbatibor.

Ahmad Farg'oni, Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg'inoniy, Muso Xorazmiy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Mashrabi zamon, Nodirai davron, Zulfiyalarga ilm berib, ularni yuksaklikka yetkazgan ham shu ustozlaringiz, shu o'qituvchilaringizdir. Faqat bir narsani unutmangki, ular ilm olishni eng birinchi galdagi vazifa deb bilganlar va o'z iste'dodlarini insoniyat manfaati uchun xizmat qilishga sarf etishgan hamda elga xizmat qilganlarning qadri yuksak bo'lishini va ular hech qachon unutilmasligini yaxshi tushunib yetganlar. Ko'rib turibsizki, biz ularning nomlarini e'zozlab kelyapmiz. Agar sizlar ham shunday ulug' maqsadlar bilan ilm olib, elga xizmat qilsangiz, ana shunday sharafga ega bo'lishingiz muqarrar.

Yurtimizda ta'lim tizimiga berilayotgan juda katta e'tiborni ko'rib-bilib turibmiz. Yangi-yangi o'quv binolari, zamonaviy o'quv jihozlari ko'zimizni quvontiradi.



BOLALAR bayramga marhamat!

Sizlarni sevimli nashrlaringiz - «Tong yulduzi» gazetasi va «Gulxan» jurnalining 80 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan «Bolalar matbuoti bayrami»ga taklif etamiz.

Bayramda bolalar dastalari va teatrlarining chiqishlari, taniqli bolalar shoirlari ishtirokidagi mushoira, turli sport musobaqalari va o'yinlari bo'lib o'tadi. Shuningdek, siz yoqtirgan taniqli san'atkorlar ishtirokida konsert namoyish etiladi.
Bayram 2009-yil 10-oktabr soat 11:00 da Toshkent shahridagi G'afur G'ulom nomli bog'da boshlanadi.

Murojaat uchun telefonlar: 244-94-38, 244-63-08, 244-27-25.
Manzil: metroning Mirzo Ulug'bek bekati.

2-betga qarang

Tabriklaymiz!

(Davomi. Boshi 1-betda)

Bundan bir necha yillar burun xorijliklardan biri ta'lim tizimimizda olib borilayotgan islohotlar, yangi zamonaviy maktablarimiz va albatta, ustoz-murabbiylar, o'qituvchilar haqida iliq so'zlar aytib, yaxshilik, ezgulik hamisha muvaffaqiyat keltirgan, sizlarga bu ajoyib sa'y-harakatlar ortidan ko'p ezguliklar yor bo'ladi, eng muhimi, yoshlaringiz yurtningiz sharafini ko'klarga ko'taradi, degan edi. Bu gaplar bugun haqiqatga aylanayapti: deyarli har hafta, har oyda jahonning turli musobaqalarida ishtirok etib qaytayotgan yoshlarimiz, jumladan, siz bolalar va o'smirlar ham katta-kichik g'alabalarga erishib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqdasiz. Biz sizlarning qo'lga kiritgan yutuqlaringiz haqida

SIZ SHARAFGA LOYIQSIZ!

baholi qudrat maqola, lavha va xabarlar berib boryapmiz. Bu muvaffaqiyatlarda, avvalo, o'qituvchi va murabbiylaringizning hissalarini kattaroq ekanligini yaxshi bilamiz. O'tgan yili Xorazmda ijodiy safarda bo'lganimizda, ziyolilardan birining uyida bo'ldik. U kishi «Falonchini chaqirib kel!» deb o'g'liga buyurdi. Qarindoshi bo'lsa kerak, deb o'ylasak, yo'q, mezbon o'g'illarining ustozini chaqirgan ekan. «O'g'limning ustozlari oldida bir umr qarzdorman. U kishi bo'lmaganlarida, men farzandimga bunchalik ko'p bilim va tarbiya berolmasdim», dedi mezbon samimiy va beg'ubor ohangda. Xalqimiz o'qituvchilarning mehnatini hamisha e'zozlab kelgan, mezbonning marhamati ham shu azaliy odatning yaxshi bir ko'rinishi edi. Qarang, shavkatli yurtimizda yana bir ulug' tong zarrin liboslarga o'ranib kirib keldi. Maktabingiz bugun har kungidan ham go'zal va maftunkor. Uning bir tekis rangli devorlarida, chiroyli derazalarida, niliy peshtoqlarida kamalak jilosi o'ynaydi. Lablaringizda kulgu, tabassum. Dilbar yurtimning erka bolasi! Bayram senga ham muborak bo'lsin. Ustoz, o'qituvchilarni ertalabdan tabriklashni unutma. Har darsda jo'r bo'lib ularni tabrik etishni ham bugun kanda qilmang. Chunki ulug' insonlar bunga loyiqdirlar.

To'lqin HAYITOV

BOLALAR NASHRLARI G'OLIBLARI



Bolalar dunyosining o'ziga xos, o'ziga mos matbuoti bor. «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» gazeta va jurnallarimiz maktab o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish, fikr doirasini kengaytirish ancha qiyin. Ularbop gazeta va jurnallar nashr etish esa undan-da murakkab. Bu muhim vazifani yuqorida tilga olingan bolalar nashrlari sharaflari bilan uddalashmoqda. Shu sababli, ushbu bolalar nashrlarining maktab o'quvchilari

o'rtasidagi ommaviyligi yildan-yilga oshib borayotir. Joriy yilning boshida o'quvchilar «G'uncha» va «Gulxan» jurnallarining har birini salkam 100 ming nusxada, «Tong yulduzi» gazetasini salkam 75 ming nusxada, «Klass» gazetasini 8 ming nusxada o'qishga musharraf bo'ldilar.

O'tgan yili noshir «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bolalar nashrlari — «Tong yulduzi», «Klass» gazetalarini hamda «Gulxan», «G'uncha» jurnallariga 2009-yil obunasini namunali tashkil etgan viloyat, tuman xalq ta'limi muassasalari, maktablar va tashkilotchilarni qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash haqida qaror qabul qilgan edi.

Bugun biz ana shu «Obuna – 2009» tadbirini yuksak darajada o'tishini va bolalar nashrlariga eng ko'p obunani ta'minlagan xalq ta'limi muassasalari, maktablar va tashkilotchilarni e'lon qilamiz:

OBUNANI ENG NAMUNALI TASHKIL ETGANLARI UCHUN:

1. Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi;
2. Namangan viloyati, Namangan tumani xalq ta'limi bo'limi;
3. Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 16-umumta'lim maktabi;
4. Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 243-umumta'lim maktabi;
5. Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi 19-umumta'lim maktabi

TELEVIZOR BILAN TAQDIRLANDILAR

OBUNANI IBRATLI TASHKIL ETGANLARI UCHUN:

1. Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi;
2. Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasi;
3. Namangan viloyati, Chust tumanidagi 3-umumta'lim maktabi;
4. Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani xalq ta'limi bo'limi;
5. Andijon viloyati, Oltinko'l tumani xalq ta'limi bo'limi;
6. Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 84-umumta'lim maktabi;
7. Namangan viloyati, Uychi tumanidagi 23-umumta'lim maktabi;
8. Toshkent shahridagi 42-umumta'lim maktabi

VIDEOMAGNITOFON BILAN TAQDIRLANDILAR

«Obuna – 2009» g'oliblarini yuksak mukofotlar bilan qutlaymiz hamda «Obuna – 2010» mavsumini yanada uyushqoqlik bilan o'tkazishlarida omad tilaymiz!

Har bir maktab va sinfda 2010-yil uchun eng ko'p bolalar nashrlariga obunani tashkil etganlarni yangi mukofotlar kutmoqda.

YOLOQIN MEHMON BO'LDI



Xabaringiz bo'lsa, o'tgan o'quv yilida tahririyatimiz tashabbusi bilan o'quvchilarimizning bilimlarini sinab ko'rish va ularga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida test sinovlarini berib borgan edik. O'z javoblari bilan unda mamlakatimiz maktablarining juda ko'p o'quvchilari ishtirok etib, bilimlarini sinab ko'rdilar. Va mazkur test sinovlarida sirdaryolik Madina Ochilova, poytaxtimizdan Diyora Jo'rayeva va qashqadaryolik Yolqin Eshquvvatov g'olib bo'lishgan edi. Kuni kecha g'oliblarimizdan biri Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi 28-

maktabning 7- sinf o'quvchisi Yolqin Eshquvvatov tahririyatimizda mehmon bo'ldi. G'oliblik sovg'alarini bolalar shoiri Qambar ota mamnuniyat bilan topshirar ekan, uning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishini, elga, yurtga sodiq o'g'lon bo'lishini tiladi. G'olib o'quvchimizning otasi o'g'lidan umidi katta ekanligini aytib, uning tahririyatimiz sovg'asini qo'lga kiritganidan mumnun ekanligini izhor etdi. Taqdimot marosmida ishtirok etgan gazetamiz xodimlari ham Yolqinga doimo omad yor bo'lishini tilab qolishdi.

TULKI BILAN MUSHUK



Bir kuni Tulki Mushukka dushmanlarini aldash uchun ishlatadigan hiylalarini maqtanib, bir qancha o'yinlari borligini aytdi:

– Bu o'yinlarim dushmanlarim qo'lidan qochishga yordam beradi, – debdi u.
Mushukcha:

– Meni esa atigi bitta choram bor. Faqat shu yo'l bilan omon qolaman, – debdi.

Bir payt uzoqdan itlarning akillagan ovozi eshilibdi. Ular ovchi itlar bo'lib, shiddat bilan bu ikkisi tomon yugurib kelishayotgan ekan. Mushuk chaqqonlik bilan daraxtga chiqib olibdi va



UMRIM OSMONIDAGI YULDUZ

Ustozni har kim turlicha ta'riflaydi. Kimdir bu zotni ona kabi mehridaryo deya e'tirof etsa, yana kimdir tuganmas sabr-bardoshli, oq-u qorani tanituvchi buyuk zot, deya ulug'laydi. Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-maktab o'quvchilari esa ustozlarini osmondagi yulduzga qiyoslashar ekan. Quyida samarqandlik tengdoshlaringiz maktublarini o'qib, ularning ustozlariga atab yozgan dil izhorlari bilan tanishasiz.

...SIZGA ILINDIM

Ustoz... Bugun ko'ngil bog'imdan dasta-dasta atirgullar terib, ularning barini Sizga ilindim. Bizga ko'rsatayotgan mehringiz, muhabbatigiz hozirdanoq bizni yuksak cho'qqilarga chorlamoqda. Sizni ko'nglimizni yo'rituvchi charog'on yulduzga qiyoslagim keladi. Nega aynan yulduzga, deysizmi? Alisher Navoiy bobomizning:

*Boshni fido ayla ano boshig'a,
Jismni qil sadqa ato qoshig'a.
Tun-kuningga aylagil nuri fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh...*

deya bitgan satrlari har birimizning ko'ngil mulkimizga aylangan. Ota-onamiz oy va quyosh bo'lsa, Siz – eng yorug' Yulduzimizsiz. Qo'limizga qalam ushlatib Vatanning ulug'vorligini, ota-onaning buyukligini, bolalik olamining beg'uborligini ongimizga singdirdingiz. Ma'naviy dunyomizni boyitib, bizni barkamol shaxs sifatida kamolga yetkazdingiz. Bir so'z bilan aytganda, samimiy mehr-muhabbatigiz ila bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatdingiz. Mehnatlaringiz evaziga kuni kelib biz ham siz orzu qilgandek O'zbekistonning chin farzandlari bo'lib kamol topamiz.

Madhiya ABDURAHMONOVA

BIRINCHI SHE'RIM

Odatda o'g'il bolalar kamdan-kam hollarda she'r yozadilar. Mening she'r yozishimga bir ustozim sababchi bo'lganlar. Shu sababli, birinchi she'rimni sevimli ustozimga bag'ishladim.

*Rahimjon, rahmli bo'lg'in, dedingiz,
Mehrlil yurak bo'l, ishqli bo'l cheksiz.
Ko'kdagi o'zdayin to'lg'in, dedingiz,
Ustoz, ta'zimdaman, mehrim bor tengsiz.
Ilk bora qo'limga ushlatib qalam,
Onamday suydingiz silab boshimni.
Ilm nuri ila yorug'dir olam,
Deb sinab ko'rdingiz siz bardoshimni.
Ulg'ayib chin o'g'lon bo'lay elimga,
Mehrđan yaratgum bir kun ulkan bog'.
Qamishdan men bog'lab belbog' belimga,
Yaratgum siz sevgan go'zal bog'-u rog'.*



Rahimjon
SHAMSIDDINOV

Gulshanoy ABDURAHMONOVA

Ilk bor maktabga qadam qo'yganimga, jajji qo'ldalarimdan ushlab, harf yozishni o'rgatgan ustozim hanuz ko'z o'ngimda gavdalanaveradi. Birinchi ustozim Aziza opa Boymurodova har bir darsimizni yangi yozgan she'rlari bilan boshlardilar. Birinchi kundanoq ularning yoqimli ovozlari sehrlanib qoldik. Darslarimiz shunday qiziqarli o'tardiki, saharlab turib maktabga yugurish kundalik odatimizga aylandi. O'sha damlarni eslasam, boshlang'ich sinfda o'qigan vaqtlarimni go'yo ertaklar shahrida yashagandek tasavvur qilaman. Shu sababli, bizni bilimlar dunyosiga yetaklab olib kirib, kitob bilan do'stlashtirgan bu ulug' zotga har qancha ta'zim qilsak ham oz deb hisoblayman.

GULG'UNCHALAR

Men barcha ustozlarimga havas qilaman. Negaki, ular shogirdlarini doimo to'g'ri yo'lga boshlaydilar. Qalbimizga ezgulik urug'larini sochib, biz o'quvchilarni savodxon va bilimdon bo'lishga undaydilar.

Hech yodimdan chiqmaydi, savodxonlik bayramimizda ustozimiz barchamizga yodlash uchun she'r berganlar. Bu bayramda men «L» harfi bo'lgandim. O'shanda yod olgan she'rim yetti yil o'tsa ham yodimda turibdi:

*Lutf ila assalom deb boshin egar,
Gulira'no gulg'unchasi bugun sizga.
Sizni barcha shogirdingiz birdek sevar,
Mehr ila dars berdingiz, ustoz, bizga.*

O'shanda biz haqiqatan ham gulg'uncha edik. Mana hozir ancha ulg'aygan bo'lsak-da, nafaqat bu she'r, balki ustozlarimiz bizga o'rgatgan barcha saboqlari, bergan ta'lim va tarbiyalari xotiramizga muhrlanib qolgan.

Gulira'no LUTFULLA qizi

SEHRLANIB QOLDIK

Jahon mamlakatlarini o'rganamiz

«Qadrli «Tong yulduzi»! Men geografiyaga juda qiziqaman. Kelajakda shu soha mutaxassisi bo'lmoqchiman. Lozim bo'lsa, jahon mamlakatlari to'g'risida ma'lumot berib borsangizlar!

Gulandom TURG'UNOVA,
Surxondaryo viloyati»

Aziz bolalar!

«O'rganganing o'zingniki» degan gap bor. Darvoqe, qancha ko'p bilsangiz, shuncha yaxshi. Erkin, ozod yurtimiz bizga keng imkoniyatlar eshigini ochib qo'yibdi. Gulandom singlimiz bilim orqali yaxshilik bog'iga intilayotgan muxlislarimizdan ko'rinadi. Aftidan, u juda e'tiborli qizga o'xshaydi. O'zga yurtlarni bilishga qiziqayotgani yaxshi: dunyoni bilish inson tafakkurini kengaytiradi. Shu bois, biz bundan buyon «Jahon mamlakatlari» rukni ostida ma'lumotlar berib boramiz.

SHVETSARIYA

Rasmiy nomi Shvetsariya Konfederatsiyasi. Poytaxti Bern. Hududi 41. 288 km.² Davlat tili nemis, fransuz, italyan, retoroman. Pul birligi Shvetsariya franki.

Iqtisodi: metallga ishlov berish, mashinasozlik, uskunasozlik, kompyuter texnikasi, transport vositalari, soatsozlik, kimyo va farmatsevtika.

SAUDIYA ARABISTONI

Rasmiy nomi Saudiya Arabistoni Qirolligi. 1902-yilning 23-sentabrida tashkil topgan. Poytaxti km.² Ar-Riyod. Hududi 2.200.000 km.²

Davlat tili arab. Pul birligi Saudiya riali. Bugungi kunda mamlakatda 8 universitet, 94 kollej va 22 mingga yaqin maktablar ishlab turibdi.

Poytaxtimiz Toshkentda ushbu mamlakatning elchixonasi faoliyat ko'rsatadi. 23-sentabr kuni poytaxtimizning «Interkontinental» mehmonxonasida o'tkazilgan yig'ilishda Qirollik tashkil topgan kun bayram qilindi.

shoxlarga tirmashib, barglar orasiga berkinib olibdi.

Tulki esa bisotidagi o'yinlardan birini eslabdi. Uni yoqtirmay, so'ng boshqasini o'yabdi... Va nihoyat, u uchinchi o'yinni munosib ko'ribdi, endi qo'llamoqchi bo'lganida, itlar uning atrofini o'rab olishibdi.

Ovchi yetib kelguncha, uni tilka-pora qilishibdi. Bu holni kuzatgan Mushukcha o'z-o'ziga shunday debdi:

«Yuz xili bo'la turib, qaysi birini tanlashni o'yab o'tirgandan ko'ra, bitta ishonchli yo'lni tutgan ma'qulroqdir».

Sumayro, Muna
XOLMURODOVA,
yosh muxbirlar

KUZNING SALQIN SABOSI

Kuz fasli o'zining salqin sabosi bilan birga hayajon ham olib keldi. Yangi o'quv yili aynan kuz faslining boshlanishiga to'g'ri keladi. Barcha o'quvchilar «yeng shimarib» bilim olishga kirishdilar. Ayniqsa, 1-bosqich talabalarida hayajon katta. Men O'zMU qoshidagi Sirojiddinov nomli akademik litseyiga o'qishga kirdim.

Litseyimiz zamon talablariga to'liq javob beradigan jihozlar bilan



ta'minlangan. Albatta, bunday sharoitda o'qigan har bir o'quvchi bilimlarni chuqur egallab, yetuk mutaxassis bo'lishga intiladi.

Men litseyimizda ta'lim olayotgan barcha o'quvchilar nomidan ko'rsatilayotgan e'tibor, yaratib berilgan qulayliklar uchun minnatdorchiligimizni bildiraman.

Sokina BAHODIROVA,
yosh muxbir

Hayotim yo'llarini Yoritar nurli o'tob

O'g'iljon ABDULLAYEVA Urganch shahridagi 1-umumta'im maktabining 9-«A» sinfida tahsil oladi. U maktabning a'lochi va jamoatchi o'quvchilaridan biri. Yaqinda uning «Kamalak jilosi» she'riy to'plami chop etildi. O'g'iljonga oq yo'l tilab, e'tiboringizga uning ijodidan namunalar havola etamiz.




KUZ

Barglar to'kilar,
Xazonrezgilik.
Bog'bon bog'ida,
Tilar ezgulik.

Mevalar pishar,
To'kin dasturxon.
Mehnatla yashar,
Dunyoda inson.

QISHLOG'IMDA

Quyosh xayol suradi,
Gulga yuzin buradi.
Mehrin sochib turadi
Jonajon qishlog'imda.



MUALLIM YURAGIM SENIKI...

Maktabga ilk qadam q'iygan chog'imda,
Quchoq ochib kutib oldi meni muallim.
Bir qadam ham nari ketmay yonimdan,
Onadek mehribon bo'ldi muallim.

Siz bergan bilimlar tunni yoritgay,
Fuksak cho'qqilarga elitgay bizni.
Fashvish, charchoqlarni butkul aritgay,
Shogirdlar ardoqlar har doim sizni.

Sochimni shamollar o'ymaydi,
Sevinchdan ko'zlarim quvnaydi,
Husningga bu ko'nglim to'ymaydi,
Yuragim seniki, Ona yurt!
Fuprog'ing meniki, Ona yurt!

Osmonda yulduzing bo'laman,
Fomiring, ildizing bo'laman.
Baxtiyor hur qizing bo'laman,
Yuragim seniki, Ona yurt!
Fuprog'ing meniki, Ona yurt!

KITOB

Kitob mening chin do'stim,
Undan bilim olaman.
Kelajakda albatta,
Men shoira bo'laman.

Orzularim bir jahon,
Poydevor unga kitob.
Hayotim yo'llarini
Yoritar nurli o'tob.

Dalalarim bepoyon,
Yuguraman to'rt tomon.
Boshimda gardsiz osmon,
Onajon qishlog'imda.

Komiljon MAMATOV,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi
tumanidagi 14-maktab o'quvchisi

Shingil so'z

KICHIK YUTUQ - ULKAN SOVG'A

Tasavvur qiling, kichkina ukangiz bilan uyda yolg'iz qoldingiz. Birozdan keyin u turli bahonalar qilib, xarxasha boshladi. Xullas, o'sha kuni kechgacha surobingiz to'g'ri bo'lib qoladi. Ana endi o'ttizdan ziyod ana shunday «xarxasha»chilarni bir joyga jamlab, ularga harf o'rgatib, sabr-toqat bilan ta'lim berayotgan ustozni ko'z oldingizga keltiring. Har gal ustozlar haqida gap ketganda, ko'z oldimga Sabohat Turg'unova, Turg'unboy Vorisjonov, Xayrulla aka Mag'zumov kabi insonlar keladi. Ularning bag'ri kengligi, mehribonliklarini oliy o'quv yurtlarida o'qiyotganimda, mustaqil hayot ostonasida ko'p bor his etganman.

Aziz o'quvchi do'stim, sizga havasim kelyapti. Bilim olishingiz uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Faqat o'qisangiz bas. Ustoz-murabbiylar bayrami arafasida sizning kichkina yutug'ingiz ham ular uchun eng katta sovg'a bo'ladi. Barchangiz ustozlaringizga ana shunday sovg'a taqdim etishingizga ishonamiz.

Yusuf ABDULLAYEV

SIZDAN MAMNUNMIZ

Bizning Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Xorijiy tillar akademik litseyimizda mehribon, fidoyi o'qituvchilar juda ko'p. Men shu litseyning 3-bosqichida tahsil olayapman. Barcha tengdoshlarim qatori men ham talabchan va mehribon ustozlarim borligidan mamnunman. Litseyimiz o'z faoliyatini 1997-yildan boshlagan. Hozirgi kunda boshqa akademik litseylar qatorida alohida obro'e'tiboriga ega. Bunda, albatta, ustozlarimizning o'rni beqiyosdir. Boz ustiga, bizda qo'shaloq bayram, aziz dargohimiz o'zining 12 yillik muchal to'yini nishonlamoqda. - Men o'z o'quvchilarim bilan faxrlanaman va bugungi kasb bayramimda iste'dodli shogirdlarimni ko'rib, behad quvondim, - deydi litseyimiz rahbari Shavkat aka Oripov. Hurmatli va muhtarama ustozlar! Barchangizni ustoz va murabbiylar bayrami bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz. Ustoz deb atalmish sharafli mehnatingizda omadlar tilaymiz.

Shahlo XOLMATOVA,
yosh muxbirimiz

«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga

Qadrlil o'quvchilar! Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili munosabati bilan «Qishlog'im - qalb ardog'im» tanlovi o'tkazilayotganidan xabaringiz bor. Ushbu mavzuda tahririyatimizga kelayotgan maktublarning son-sanog'i yo'q. «Qishlog'im bilan faxrlanaman». Bu gap har bir maktub egasining dil so'zlaridir. Zero, faxr tuyg'usi qalbga quvonch, kelajakka ishonch belgisidir. Ana shu tuyg'u har birimizga nasib etsin.



BU YERDA MANG'ITLAR YASHAGAN

Qadimda qishlog'imiz o'rnida Mang'itlar sulolasi yasharkan. Mang'itlar eng kuchli o'zbek qabilalaridan biri bo'lgan. Shu sababdanmi, «Yuqori Mang'it» va «Sara Mang'it» nomlari bilan yuritiladi. Mustaqillik yillari qishlog'imizda juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Ko'plab inshootlar, zavod-fabrikalar, masjid, kasalxona va savdo-do'konlari qurilib, ishga tushirildi.

Bugungi kunda qishlog'imizda aholi soni 5022 nafarga yetdi, xo'jaliklar 864 ta, oilalar soni 1899 ta bo'lib, ular bir-birlari bilan ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqda.

Men o'z Vatanimni, qishlog'imni doimo qalb ardog'imda saqlayman va shuhratini yanada ko'tarishga harakat qilaman.


Sabohat RAHIMOVA,
Farg'ona viloyati, Buvayda tumani



2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI YILI

BIRINCHI USTOZIM

- Mening birinchi ustozim buvijonim bo'ladilar, - deydi Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidan Mardonbek Boltayev. - Buvijonim va barcha ustozlarni bayramlari bilan tabriklayman.



UYIMIZDAGI MO'JAZ MUZEY

Biz Pop tumanidagi Sang qishlog'ida yashaymiz.

Qishlog'imiz yonidan shimoliy Farg'ona kanali, so'lim Sirdaryo oqib o'tadi.

Onam tarixiy buyumlar yig'ishga qiziqadilar. Ularning kolleksiyalarida turli tangalar, sopol idishlar, rasmlar bor. Uyimizdagi kichik muzey desam ham adashmayman. Tarixdan so'zlovchi bu buyumlarni onam va bobom Musoboy ota

ehtiyot qilib saqlab kelmoqdalar. Chunki ularning har birini o'z tarixi bor.


Biz yoshlar har tomonlama go'zal, muqaddas ostonamizni qadrlashimiz shart. Uning taraqqiyoti va farovonligi uchun xizmat qilaylik. Qishloq obod bo'lsa, yurt ko'rkamlashadi, rivojlanadi.

Ziyomhammad FOZILJONOV,
Xurshidabonu FOZILJONOVA,
Namangan viloyati, Pop tumanidagi
10-maktab o'quvchilari



Tabiat haqida ko'p va xo'p gapiramiz. Uning betakror go'zalliklaridan zavqlanamiz, bag'riga talpinamiz. Noz-u ne'matlaridan bahramand bo'lamiz-u, insonlar orasida uchrayotgan ayrim xastaliklarga uni «aybdor» qilamiz. Xo'sh, ana shu himoyasiz tabiatning ifloslanayotganiga, ekologiyaning buzilishiga asosiy sababchi kim? Uning ta'rif-u tavsifini ko'klarga ko'tarib maqtayotgan biz insonlarning o'zi emasmi?

Quyida e'tiboringizga tabiatga mehr qo'ygan tengdoshlaringizning bu boradagi fikr-mulohazalarini havola qilyapmiz.



Nazokat HASANOVA chizgan rasm

MAJNUNTOL

Kelinchak misoli boshingni egib,
O'y surib turasan ma'yus, Majnuntol.
Balki sen Laylisan, hajringda yonib,
Devona bo'lgandir o'sha Majnun, tol!?

Mahzun qomatingni tutib ohista,
Suvdagi aksingga bir bora boqqin.
Bahor bezantirmish butun borliqni,
Uzun sochlaringga zarpopuk taqqin.
Sho'x-sho'x qo'shiq kuylab ariq suvlari,
Zumrad barglaringni shamol o'ynasin.
Osmonning zarkokil qizi quyoshxon,
O'tli salomlarni senga yo'llasin.

Bilmadim, ne uchun g'amingsan buncha,
O'ychan nigohlaring qalbimni o'rtar.
Zavqlanib yashashga haqqing bor axir,
Majnuntol, bir nafas boshingni ko'tar.

Lobar G'ANIYEVA,

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani

Ukajonlarim, 16-sentabr – Xalqaro Ozon qatlamini saqlash kuni ekanligidan xabaringiz bor-a? Ozon qatlamining yemirilish sabablari haqida o'qiganlarimni Sizlar bilan o'rtoqlashmoqchiman:

Yer yuzasidan 20-25 km. balandlikdagi stratosferada joylashgan ozon qatlami barcha tirik mavjudotni koinotdan kelayotgan zararli nurlardan himoya qiladi. Agar bu qatlam bo'lmasa, Quyosh butun sayyorani kuydirib yuborishi mumkin. Keyingi paytlarda ozon qatlami yupqalashib, Janubiy qutb, Arktika va

Shpisbergen ustida tuynuklar paydo bo'lmoqda.

Xo'sh, ozon «ko'ylagi»ning yirtilishiga nimalar sabab bo'lmoqda? Gap shundaki, aeroxolli qadoqlash, muzlatgich va konditsionerlardan foydalanish natijasida atmosferaga chiqadigan xlorli va fluorli uglevodorodlar Yer stratosferasiga ko'tarilib, u yerda uzoq muddat turib qoladi va asta-sekin ozon qatlamini kilogrammlab, tonnalab yemira boshlaydi. Buning oqibati esa dahshatli.

Insoniyat boshqa ishqorli yomg'irlar, issiqxona effekti singari uncha yirik bo'lmagan muammolardan farqli o'laroq, ozon tuynuklari masalasida bir to'xtanga kela oldi. Bugungi kunda garchi hamma mamlakatlar imzo chekmagan bo'lsa-da, 1998-yildan boshlab ozon kushandasi bo'lmish xlorli va fluorli uglevodorodlardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi Xalqaro bitim amal qilmoqda. Bu muammo haqida kelajakning egalari bo'lmish biz yoshlar ham bosh qotirsak, ayni muddao bo'lardi.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
«Mo'jiza kitob» bolalar uchun umumiy
ensiklopediyadan foydalanildi

MASKANIMIZ BOG' BO'LSIN

Ko'p yillardan buyon maktabimiz qoshida «Yosh biologlar» to'garagi faoliyat ko'rsatib keladi. Erta bahorda «Quruqsoy», «Adilboy to'la», «Qorovulpepa» adirlariga uyushtirgan sayohatimiz juda maroqli bo'ldi. Qishlog'imizda nomlari «Qizil kitob»ga kiritilgan lola, mirach, burma qora va yovvoyi gulsapsar kabi o'simliklarning o'sishi bizni juda quvontirdi. Bu o'simliklarni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, ustozimiz ularning shifobaxsh xususiyatlari haqida gapirib, ularni asrab-avaylashimiz lozimligini ta'kidladilar. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bob, 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralalar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», deya belgilab qo'yilgan.

Shunday ekan, tabiatni muhofaza qilish, boyliklarini ko'paytirish har birimizning burchimiz.

Mirzohid MAHMUDOV,
Jizzax viloyati, Forish tumani, Garasha qishlog'idagi
38-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi



HAYOT MANBAI

Dars boshlandi. Ustozimiz yaqinda o'tilgan «Tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari» mavzusi yuzasidan savol-javob o'tkaza boshladilar. Shu payt ko'z o'ngimda bundan chamasi ikki yarim oylar avval qishloqni aylanib, xaridor qidirib yurgan kishilar va saksovullar ortilgan katta yuk mashinasi gavdalandi. Ular: «Mana bu o'tinlarni sotib olsangiz, qishning ayoz, qahratonidan qo'rqqamasangiz ham bo'laveradi», deya qishloqdoshlarimizni savdoga chorlashardi. Menimcha, ular «Tabiatni muhofaza qilish» to'g'risidagi qonundan bexabar bo'lsalar kerak yoki bilishsa-da, mo'may daromad orttirish maqsadida unga rioya qilmayotgan edilar. Tabiiy muhitni asrash yo'lidagi chora-tadbirlar yanada kuchaytirilayotgan, kamyob bo'lib borayotgan o'simlik va hayvonot olamini saqlab qolishga harakat qilinayotgan, maxsus qo'riqxonalar barpo etilayotgan bir paytda ularning bunday qilmishidan ranjdim. Dars davomida tabiatni muhofaza qilishimiz, ekologik muhitni asrab-avaylashimiz, amaldagi har bir qonun hujjatlariga bee'tibor bo'lmasligimiz lozimligini tushunib yetdim.

Shu kunyoq dugonam ikkimiz maktab qoshida tashkil etilgan «Yosh muxbirlar» to'garagiga a'zo bo'ldik.

To'garakda olgan bilimlarimizni mahalladagi do'stlarimiz bilan o'rtoqlashyapmiz, ularni ham tabiatni sevishga, ardoqlashga o'rgatyapmiz. Axir ona tabiat hayotimiz manbai-ku!


Feruza XAYRULLAYEVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
19-umumta'lim maktabi «Yosh muxbirlar» to'garagi a'zosi


BILASIZMI?



O'txo'r hamda go'shtxo'r hayvonlarni farqlashning juda oddiy usuli bor: go'shtxo'r yirtqichlarning ko'zlari boshining old tomonida, o'txo'rlarning ko'zlari esa boshining yon tomonida joylashgan bo'ladi.



Jonzotlarning tanasi qancha katta bo'lsa, yuragi shuncha kam, tanasi qancha kichik bo'lsa, yuragi shuncha ko'p uradi. Shuning uchun filning yuragi bir daqiqada 25-40 marta, sichqonnik esa 520-780 marta uradi.



Vali Ahmadjon bobongiz Sizlar uchun doimo qandek she'rlar bitishga harakat qiladi. Sizlarga atab chiroyli muqovali kitob ham chiqaribdilar. U kishiga Sizning nomingizdan sog'liq va barakali ijod tilaymiz.

Tahririyat

MEHRIBONLAR

Saodat opa avvalgi sinf rahbarimizga sira o'xshamaydilar.

Darsdan «quyon» bo'luvchilarga ham, uch kunlab sababsiz kelmay qo'yuvchilarga ham beparvo. Jahllari chiqsa ham baribir urishmaydilar. Bolalar bu erkinliklardan rosa bir oy mazza qilib yayrashdi. Ayniqsa, Dilshod behad taltayib ketdi. Shu bir oyda sanoqli uch kun darsga keldi, xolos. O'ttiz nafar o'quvchiga mo'ljallangan partalar onda-sonda to'liq bo'ldi.

Kutilmaganda sinf yig'ilishi bo'ldi. Gap, albatta, intizomsizlar haqida deb o'ylarsiz. Yo'q. Aksincha bo'ldi.

– Bolalar, sizlarga havasim keladi, – dedilar Saodat opa. – Faqat bir narsa menga yoqmayapti.

– Ayting, opa. Nima ekan u? – dedi Sarvar xotirjam.

– B i r – biringizga mehribon emassizlar. Attang, – dedilar u bosh tebratib.

– Yo'g'-e! – dedi Halim ko'zlari pirpirab.

– Ha, rost, – deya gapida davom etdi Saodat opa. – Kim darsga sababsiz kelmasa, ertasigayoq hamma uni ko'rgani borishi kerak. O'sha o'rtoqlaringiz ham, ota-onasi ham xursand bo'ladi. Bugun Dilshodlarnikiga boringlar. Darsga



kelmadi.

Darvozani Dilshodning o'zi ochdi. Uylari chiroyli ekan. Avval hovlidagi gullarni tomosha qildik. Yoqqanini uzib hidladik. Keyin kuchukchasini uzun arqonga bog'lab, sudrab o'ynatdik. Hali pishmagan olmalarni duv to'kib rosa yedik. Dasturxoniga qo'yilgan non-u shirinliklarni paqqos tushirdik. Cho'ntaklar esa qappaydi...

Salimlarnikiga borganimizda esa koptogini uy ichida tepib o'ynadik. Kutilmaganda oyna sindi-yu, ura qochdik.

– Partalar bolalar bilan to'liq. – Iloho ko'z tegmasin, – deya Saodat opa jilmaygani-jilmaygan. Qiziq. Buning siri nimada ekan-a? Topish sizdan, sovg'a bizdan.

Vali AHMADJON

TOMDAGI TOMOSHA

G'ijirlatib tishlarini
It chunonam irillaydi.
Tomda mushuk beparvo, shod
Dum o'ynatib hirlinglaydi.

FONARCHAM

Fonarcham bir chiroyli,
Oyna ko'zi nur sochar.
Qorong'uga yo'llasam,
Menga oppoq yo'l ochar.

Hoy, fonarcham, fonarcham,
Sen quyoshning bolasi.
Men esa hur Vatanning
Farzandi, ko'z-qorasi.

BIR, IKKI, UCH...

Qani, toshni ko'tardik:

– Bir, ikki, uch...

Keng ariqdan o'taylik:

– Bir, ikki, uch...

Botirlikka chorlar son:

– Bir, ikki, uch...

Cheksiz quvvat bo'l har on:

– Bir, ikki, uch...

Boshi o'tgan sonlarda

**GAZETANING
BIRINCHI SONI**
yoki uni qanday
topganim haqida...

MUXBIRLIKNING OLIS YO'LLARI

Biz gazetaning 1929-yildan chop etila boshlaganini bilar edik. Lekin uning ilk nusxalari saqlanmagan edi. Ko'rinishi qanaqa bo'lgan, qanday maqolalar e'lon qilingan, bilmasdik. Borlari ham kutubxonaga o't tushib, yonib ketgan edi. Yubiley komissiyasi tuzilib, gazeta tarixini o'rganish kaminaga yuklatildi. Gazetaning ilk sonlarini qidirayotganimiz haqida e'lon ham berib yubordik. Namangandan bir o'quvchimiz varaqlari sarg'ayib, hilvirab qolgan bir dona gazeta jo'natdi. U o'ttiz beshinchi yillarda chop etilgan, lotin imlosidagi nusxa edi. Bir amallab o'qigan bo'ldim. O'shanda nemis tili o'qituvchimiz Tamara Xvaryaginadan juda minnatdor bo'lganman. Uning ota-onasi urush yillarida O'zbekistonga kelib qolgan, Tamara opa shu yerda tug'ilgan, o'zbekchani yaxshi bilardi. Bizga paxta dalalarida ham, pilla terimlarida ham o'z fanini o'rgatgani-o'rgatgan edi. Uyiga ham chaqirib dars berardi. Ota-onasi uyida o'z tilida gaplashardi. Nemischadan uncha-buncha xabardorligim gazetani o'qishimga yordam berdi. Buni ko'rgan Bosh muharririmiz Suhrob aka Yo'ldoshev meni Moskvaga jo'natadigan bo'ldilar. Chunki gazetaning ilk taxlamlari o'sha

yerdagi kutubxonalarning birida saqlanayotganidan xabar topgan edik. Shunday qilib, oltmish sakkizinchi yilning kuzida, paxta mavsumi tugagach, qaydasan, Moskov, deb yo'lga tushdim. U yerda allaqachon qahraton qish sovuqlari boshlanib ketgan ekan. O'sha kutubxonani topdim. Unga a'zo bo'lish, fondlardan foydalanish bilan

kserokopiyalar qayda... Shunday qilib, Toshkentga muzdek bo'lib, quppa-quruq qaytib keldim. Suhrob aka intizomli, o'ta qattiqqo'l odam edilar. «Men hech narsa bilmayman, arab imlosini o'rganasiz va topshiriqni oxiriga yetkazasiz», dedilar.

Institutda o'qib yurgan paytimizda eski o'zbek

yozuvidan dars bergan Halilov degan domla bo'lardilar. U kishi kutubxonachilarga kerak bo'ladi, o'qishni bilmasalaring ham harf tanib qo'yinglar, deb eski o'zbek imlosida doir bir, ikki mashg'ulot o'tkazgan edilar. Ba'zilar u kishining to'garigiga qatnashib, ism va familiyalarini arabchada yozib yurganlarini ko'rgan edim. O'shanda beparvo bo'lganimga rosa pushaymon bo'ldim. Bir kuni domlani tasodifan Navoiy ko'chasida uchratib qoldim. Sumkalaridan o'zlari yozgan darslikni chiqarib, menga sovg'a qildilar. Bahonada arabchani ham, lotinchani ham ancha yaxshilab o'rganib oldim. Shunday qilib, olti oydan keyin yana Moskovga

qarab yo'l oldim va bu safar qo'ni-qo'njim to'lib, yubiley soniga materiallarni yetkazib keldim.

(Qisqartirib bosildi. Tamom.)



Erkin MALIK



Nasha shkola №175 находится в Мирабадском районе города Ташкента. В нём учатся около 830 учащихся. Для них созданы все условия. Здесь работают кружки по разным предметам, есть компьютерные классы и кабинет лингофона. Обучение проводится на узбекском и русском языках. В школе обучаются дети разных национальностей как в одной семье. Благодаря таким учителям, как Валентина Сыч, Софья Салихова, Валентина Карабанова, Галина Бурунова, Дилором Анварова, Галина Мальцева, Рохила Абдуллаева,

САМЫЙ СЧАСТЛИВЫЙ ДЕНЬ

Зулфия Кулбаева, Мохира Ахмедова мы победили на первом туре соревнования «Культурные знания 2008-2009» среди городских школ, проводимом Посольством Америки. Самым счастливым днем в этом году был день, когда мы узнали, что все выпускники нашей школы поступили в колледжи и Академические лицеи.

Дорогие коллеги! От души поздравляю Вас – с профессиональным праздником. Здоровья и успехов Вам! Мои пожелания, чтобы звание учителя Вы достойно пронесли через всю свою жизнь!

*Наталья ШАХНАЗАРОВА,
директор школы №175, Отличник
системы Просвещения*

ESLATIB O'TAMIZ:

TANLOVLAR DAVOM ETMOQDA,
SIRLI SOVG'ALAR SIZNI KUTMOQDA!

«QO'G'IRCHOG'IM – OVUNCHOG'IM

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika xalq ijodiyoti markazi, Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi hamda Respublika bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» hamkorligida «Qo'g'irchoq'im – ovunchog'im» tanlovini o'tkazadi.

Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarning qo'lida bo'lgan mahalliy xom-ashyo (loy, qog'oz, yog'och, somon, mato va boshqa)lardan milliy ertaklarimiz qahramonlarini yaratish;
2. «Qo'g'irchoqlar malikasi» degan nomga munosib qo'g'irchoq timsolini yaratish;
3. Maktabi, mahallasi qoshida «O'yinchoqlar ustaxonasi»ni ochish;
4. Yaratgan o'yinchoqlarining bir nusxasini tahririyatga yuborish.

Tanlov 2010-yil 1-iyunda yakunlanadi. G'oliblarni maxsus Diplomar, homiyar hamda mashhur qo'g'irchoqbozning sirli sovg'alari kutmoqda.

O'SIMLIKLAR OLAMIGA SAYOHAT

Aziz o'quvchilar! Gazetamizning har bir sonini kuzatib boring. Sizing o'simliklar olamiga oid bilimlaringizni sinash maqsadida test savollarini e'lon qilyapmiz.

TEST

1. Qaysi qatorda dorivor o'simliklarning nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) kiyiko't, marmarak, sebarga;
- B) qoraqobiq, yantoq, izen;
- D) zubtutum, qoraqobiq, marmarak;
- E) isiriq, yantoq, shuvoq;
- F) isiriq, zubtutum, na'matak, shumtol.

2. Hasharotxo'r o'simliklar nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) suv qaroqchisi, qopqoqli hasharotxo'r, drosera;
- B) Kaliforniya darlingtoni, perentes;
- D) drosera, quyonsuyak, kirpio't;
- E) a va b javobi to'g'ri;
- F) suv qaroqchisi, quyonsuyak, perentes.

BERUNIYNI O'RGANAMIZ

Gazetamizning shu yil 10-avgust sonida Abu Rayhon Beruniy bobomizning ilmiy merosini o'rganish maqsadida viktorina savollarini bergan edik. Savol muallifi ustozingiz Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10- maktabning tarix va geografiya fani o'qituvchisi Asliddin Boliqulovning sovg'asi sizni kutmoqda.

VIKTORINA SAVOLLARI

1. «Beruniy» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. «Al-qonun al-Ma'sudiy» asari qaysi sohaga oid?
3. Beruniyning «Kitob al-jamohir fi-ma'rifat al-javohir» asari yana qanday nom bilan mashhur?
4. Akademik V.Rozen Beruniyning qaysi asarini «Sharq va g'arbning qadimgi va o'rta asr kitoblari orasida tengi yo'q asar» deb baholagan?
5. Beruniy nechta yulduzning joylashuvi va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini tuzgan?
6. Beruniy yer meridiana yoyining bir darajasi necha metrga teng deb topadi?
7. Abu Rayhon Beruniyning birinchi ustoz kim?
8. Yurtimizdagi qaysi shaharlarda Beruniyga haykal o'rnatilgan?

BILIMINGIZNI SINAB
KO'RING VA SOVG'ALARNI
QO'LGA KIRITING

DONOLAR O'QITUVCHILAR HAQIDA

O'z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg'ota bilgan muallim sharaflarga loyiq.
E.XABBARD

Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkur dunyosidir.
A.DISTERVEG

O'qituvchining butun faxri o'quvchilarida, o'zi sochgan urug'larning o'sishidadir.
D.I.MENDELEYEV

Yaxshi o'qituvchilar yaxshi shoirlarni yetishtiradi.
M.V.OSTROGRADSKIY

Boshqalarni o'qitib, o'zimiz ham o'rganamiz.
SENEKA

O'qitish ikki barobar o'qish demakdir.
J.JUBER

Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri – o'quvchiga hurmatda.
R.EMERSON

Tarbiyadagi eng katta xato o'ta shoshqaloqlikdir.
J.J.RUSSO

BU MENING USTOZIM

Men Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-maktabning 6-sinf o'quvchisi Risolat Po'latovaman. Kuni kecha bilim maskanimizda O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlab 6-7-sinflar orasida «Bu mening ustozim» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Shartlarga ko'ra, o'quvchilar ustozlarga atab ijodiy ish tayyorlashlari kerak edi. Bolalarning bajarib kelgan ishlaridan, chizgan suratlarini, yozgan tabriklari, she'rlarida keltirgan

SIZNI «UNIVERSIADA – 2010» KUTMOQDA

Hademay o'sha kun ham keladi. Shu bois ham talaba aka-opalaringizning hayajoni kundankunga ortib boryapti. Go'zal Andijon shahri esa ularni ajoyib tarzda kutib olish uchun katta sa'y-harakatlar bilan tayyorgarlik ko'rmoqda. Bu Siz uchun ham imkoniyat, aziz bolalar! Ertaga Siz ham talabalar safida bo'lasiz.



«YASHA, O'G'LIM!» DEDI OTASI

Ha, shunday, otasi faxrlanib uni maqtangani rost. Arnasoylik tengdoshingiz 20-maktabning 8-sinf o'quvchisi Asror Musurmonov shu yil 21-22-avgust kunlarida karate-do bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston IV ochiq chempionatida faxrli 3-o'rinni egalladi. Albatta, bu g'alabadan ota xursand bo'ladi-da!

ta'riflarida ustozlaridan qanchalik faxrlanishlari ko'rinib turardi. Ayniqsa, 7-«A» sinf o'quvchisi Humoyun Po'latov, Javohir Kaziyev, Sardor Yo'ldoshevning ishlari barcha ustozlarga ma'qul bo'ldi. Birinchi o'rinni 6-«A» sinf o'quvchisi Nafisa Botirova egalladi. Maktabimizda o'tkazilgan bu tadbir ustozlar bilan o'quvchilarni orasidagi mehrni yanada kuchaytirdi.

Fursatdan foydalanib, men barcha ustozlarni bayramlari bilan muborakbod etaman.

*Shohjahon RAUPOV
yozib oldi*



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«USTOZGA TA'ZIM» TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD

Skanvord javoblarini topib, so'zlar ta'riflari atrofiga belgilangan xonadan yozish bilan skanvordni hal eting. So'ng, shakl atrofidagi xonalardagi raqamlarni javoblar yozilgan xonalardagi harflar bilan almashtirib, muammonmani yeching. Bunda ulardan ibratli so'zlarni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26425
Buyurtma N: J 8154

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV